

Toshkent viloyatida demografik holat

2025- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025- yilning 1- iyul holatiga Toshkent viloyatining doimiy aholisi soni **3 134 131** kishini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2025- yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **31 236** nafarni, vafot etganlar **7 914** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **23 322** kishiga teng bo'ldi. Ko'chib kelganlar soni **15 727** kishini va ko'chib ketganlar soni **13 447** kishini, qayd etilgan nikohlar **7 216** birlikni, nikohdan ajralishlar **2 330** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 134 131	kishi
Tug'ilganlar soni	31 236	kishi
Vafot etganlar soni	7 914	kishi
Ko'chib kelganlar	15 727	kishi
Ko'chib ketganlar	13 447	kishi
Nikohlar soni	7 216	birlik
Nikohdan ajralishlar soni	2 330	birlik

II. Doimiy aholi soni


Toshkent viloyatida doimiy aholi soni 2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra **3 134,1** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **54 638** kishiga yoki **1,8 %** ga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 564,5** ming kishi (*jami aholi soniga nisbatan 49,9 %*), qishloq joylarda esa **1 569,6** kishi (*50,1 %*) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 560,9** kishini (*49,8 %*), erkaklar esa **1 573,2** kishini (*50,2 %*) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni (1- iyul holatiga, ming kishi)

	2024- yil	2025- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 079,5	3 134,1	101,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	56,8	58,2	102,5
Olmalik	147,6	150,0	101,6
Angren	184,0	186,9	101,6
Bekobod	105,3	106,7	101,3
Ohangaron	41,6	42,5	102,2
Chirchiq	174,1	176,8	101,6
Yangiyo'l	86,3	88,0	102,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	113,1	114,8	101,5
Ohangaron	112,2	113,8	101,4
Bekobod	166,9	169,5	101,6
Bo'stonliq	177,4	178,6	100,7
Bo'ka	135,6	137,7	101,5
Quyi Chirchiq	116,8	118,5	101,5
Zangiota	173,2	178,0	102,8
Yuqori Chirchiq	140,6	142,8	101,6
Qibray	176,9	180,3	101,9
Parkent	180,0	183,4	101,9
Piskent	102,3	104,1	101,8
O'rta Chirchiq	138,8	141,7	102,1
Chinoz	146,8	149,3	101,7
Yangiyo'l	201,9	205,7	101,9
Toshkent	201,3	206,8	102,7

Toshkent viloyatida 2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **207,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,7** kishiga ortgan (2024- yil 1- iyul holatiga 1 kv.km.ga **203,9** kishi).

Aholi zichligi (1- iyul holatiga, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni)




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **31 236** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,2** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **2 352** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **7 914** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **319** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni (yanvar-iyun oylarida, kishi)



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **31 236** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **16 101** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5 %**), qiz bolalar soni **15 135** kishini (**48,5 %**) va shahar joylarida **14 280** kishini (**45,7 %**), qishloq joylarida **16 956** kishini (**54,3 %**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **7 914** kishini, shundan erkaklar **4 438** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **56,1 %**), ayollar **3 476** kishini (**43,9 %**) va shahar joylarida **4 728** kishini (**59,7 %**), qishloq joylarida **3 186** kishini (**40,3 %**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-iyun oylarida, kishi)




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **7 216** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **377** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **2 330** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **45** birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-iyun oylarida, birlik)



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **7 216** birlikni, shundan shahar joylarida **3 837** birlikni (53,2 %), qishloq joylarida **3 379** birlikni (46,8 %) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **2 330** birlikni, shundan shahar joylarida **1 359** birlikni (58,3 %), qishloq joylarida **971** birlikni (41,7 %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-iyun oylarida, birlik)



V. Aholi migratsiyasi

2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **15 727** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **15 585** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **142** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **13 447** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **12 121** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **1 326** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi


	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Viloyat bo'yicha:	15 727	15 585	142	13 447	12 121	1 326
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	587	581	6	245	238	7
Olmaliq	772	759	13	711	683	28
Angren	429	427	2	476	450	26
Bekobod	323	322	1	416	410	6
Ohangaron	493	493		201	194	7

Chirchiq	1392	1390	2	815	698	117
Yangiyo'l	621	613	8	449	428	21

Jadval davomi

	Ko‘chib kelganlar soni			Ko‘chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
tumanlar:						
Oqqo‘rg‘on	216	211	5	372	324	48
Ohangaron	388	388		537	518	19
Bekobod	295	295		479	477	2
Bo‘stonliq	133	133		701	513	188
Bo‘ka	243	243		463	390	73
Quyi Chirchiq	485	470	15	523	328	195
Zangiota	2168	2168		1232	1192	40
Yuqori Chirchiq	846	836	10	671	552	119
Qibray	1518	1514	4	1309	1257	52
Parkent	207	206	1	263	243	20
Piskent	334	330	4	445	427	18
O‘rta Chirchiq	921	891	30	843	790	53
Chinoz	366	338	28	423	272	151
Yangiyo‘l	1136	1130	6	984	891	93
Toshkent	1854	1847	7	889	846	43

**Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni
(yanvar-iyun oylarida, kishi)**



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.